TA’LIM TIZIMIDA MASOFAVIY TA’LIMNING O‘RNI, MOHIYATI VA FUNKTSIYALARI OILAVIY SHIFOKORLARNI TAYYORLASHDA

Voxidov Dilshod Alikulovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
Ne’matjonova Yulduz O‘tkirjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti, pedagogika kafedrasi p.f.f.d., v.b., prof.
Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Voxidov Alikul Melitoshevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, iqtisod fanlar nomzodi, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’limning o‘rni, mohiyati va asosiy funksiyalari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda masofaviy ta’limning zamonaviy ta’lim paradigmasidagi ahamiyati, uning an’anaviy va pragmatik ta’lim modellaridagi o‘rni hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, masofaviy ta’lim texnologiyalarining oliy ta’lim muassasalarida, xususan, malaka oshirish tizimida, jumladan oilaviy shifokorlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada masofaviy ta’limning didaktik prinsiplari, metodik ta’minoti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda tashkil etish mexanizmlari hamda uning ta’lim sifatini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari masofaviy ta’limning oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash va uzluksiz kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashdagi muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, oliy ta’lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, elektron ta’lim, E-learning, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, pragmatik ta’lim modeli, malaka oshirish tizimi, uzluksiz ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiy ta’lim, oilaviy shifokorlar tayyorlash.

Аннотация. В статье с педагогических позиций анализируются место, сущность и основные функции дистанционного образования в системе высшего образования. Рассматривается значение дистанционного обучения в условиях современной образовательной парадигмы, его взаимосвязь с традиционной и прагматической моделями обучения, а также с компетентностно-ориентированным подходом. Особое внимание уделено педагогическим возможностям дистанционных образовательных технологий в системе повышения квалификации, в том числе при подготовке и профессиональном развитии семейных врачей. В работе раскрываются

ISSN 3030-3907

дидактические принципы дистанционного обучения, вопросы методического обеспечения, механизмы организации учебного процесса на основе информационно-коммуникационных технологий и их влияние на повышение качества образования. Результаты исследования подтверждают, что дистанционное образование является важным фактором модернизации системы высшего образования, обеспечения гибкости учебного процесса и поддержки непрерывного профессионального развития специалистов.

Ключевые слова: Дистанционное образование, система высшего образования, педагогические технологии, электронное обучение, E-learning, компетентностно-ориентированное обучение, прагматическая модель обучения, система повышения квалификации, непрерывное образование, информационно-коммуникационные технологии, медицинское образование, подготовка семейных врачей.

KIRISH

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Masofaviy ta’lim muammolari va uni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, masofaviy ta’limning nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlari A. Andreev, E. Polat, V. Soldatkin [1,2] kabi olimlar ishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida masofaviy ta’lim mustaqil ta’lim olishni qo‘llab-quvvatlovchi, o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga oluvchi ta’lim shakli sifatida talqin qilinadi.

E. Polat masofaviy ta’limni axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi bilvosita muloqotni ta’minlovchi pedagogik tizim sifatida izohlaydi. Uning fikricha, masofaviy ta’limda o‘quv jarayonining samaradorligi didaktik materiallarning sifati va interaktiv metodlardan foydalanishga bog‘liq.

Mahalliy olimlar Inoyatov U.I., To‘xtiyev N. [3,4] tomonidan ham masofaviy ta’limning turli jihatlari o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’limni joriy etish, uning normativ-huquqiy asoslari, metodik ta’minoti va pedagogik shart-sharoitlari masalalari ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Ushbu ishlar masofaviy ta’limning uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini asoslab beradi.

Ayniqsa, tibbiy ta’limda, jumladan, oilaviy shifokorlarning malakasini oshirish jarayonida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari alohida dolzarblik kasb etadi. Tadqiqotchilar masofaviy ta’lim shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy klinik bilimlarni tezkor yetkazish hamda ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlashda samarali vosita ekanini ta’kidlaydilar.

ISSN 3030-3907

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim nafaqat an’anaviy ta’limni to‘ldiruvchi, balki ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik model sifatida qaralmoqda.

Oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’limni jadal rivojlantirish hozirgi bosqichda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning sababi - respublika ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va aholining zamonaviy ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabining ortib borayotganidadir.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi mamlakatdagi eng yirik ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, u yuz minglab professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarni birlashtiradi. Hududlarning o‘ziga xos geografik masofalashganligi, tibbiyot sohasida malaka oshirishga ehtiyojning yuqoriligi, ta’lim jarayonining tezkor yangilanishi masofaviy ta’limdan keng foydalanishni talab qilmoqda. Natijada zamonaviy ta’lim muassasalari o‘rtasida boshqaruv, ma’muriy, uslubiy va ilmiy axborot almashinuvini samarali tashkil etish zarurati yuzaga keldi.

1996-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan ilmiy-pedagogik qarashlarda milliy ta’lim tizimlari rivojida masofaviy ta’limning ustuvor yo‘nalish sifatida tan olinishi mamlakatlarda bu yo‘nalish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston ham mazkur global tendensiyadan chetda qolmay, 2020-yillardan boshlab masofaviy ta’limni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash va huquqiy asoslarini yaratishga kirishdi.

Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida oilaviy shifokorlarni malaka oshirish jarayoniga masofaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish sohada sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Masofaviy o‘qitishning zamonaviy shakllari oilaviy shifokorlarning ish joyidan ajralmagan holda bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirishga imkon yaratadi. Bu esa, tibbiy xizmatlar sifati va aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, avvalgi yillarda masofaviy ta’lim asosan muqobil ta’lim shakli sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi kunda u oliy ta’limning ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda. Masofaviy ta’lim mazmuni, normativ-huquqiy asoslari, texnologik platformalari hamda metodik ta’minoti bo‘yicha aniq standartlar ishlab chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” gi qarori masofaviy o‘qitishning tashkiliy, texnologik va pedagogik asoslarini belgilab berdi.

Masofaviy ta’lim jarayonining metodik jihatlarini takomillashtirish ham ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Elektron ta’lim

ISSN 3030-3907

resurslari, elektron kutubxonalar, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar hamda tibbiyotga oid raqamli platformalar masofaviy o‘qitishning mazmunini kengaytirib, uni yanada samarali va innovatsion shaklga keltirmoqda.

Shuningdek, masofaviy o‘qitishning an’anaviy ta’limga nisbatan qator afzalliklari mavjud: tinglovchilarni geografik masofadan qat’i nazar qamrab olish imkoniyati; o‘quv jarayonida vaqt va resurslardan tejamkor foydalanish; o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasida tezkor muloqot va interaktiv kommunikatsiya; o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensial yondashuvni keng qo‘llash; tibbiyot amaliyotida zarur bo‘lgan zamonaviy klinik bilim va ko‘nikmalarni elektron muhit orqali uzluksiz yangilab borish.

Shunday qilib, oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’limning joriy etilishi, ayniqsa oilaviy shifokorlarning malaka oshirish jarayonida, zamonaviy tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, mutaxassislarning kompetensiyalarini takomillashtirish va ta’lim jarayonini innovatsion shakllarda tashkil etishga zamin yaratadi.

So‘nggi o‘n yil ichida masofaviy o‘qitishning sun’iy yo‘ldosh, tarmoq va televizion shakllari jadal rivojlandi. Bu jarayon rivojlangan davlatlarda qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan tenglashish imkonini berdi. Shubhasiz, bugungi kunda ham elektron ta’lim va axborot texnologiyalarini masofaviy o‘qitish tizimida samarali qo‘llash yanada katta investitsiyalarni, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda amaliyotga keng miqyosda elektron darsliklar, o‘quv va nazoratga yo‘naltirilgan kompyuter dasturlari, modulli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va masofaviy o‘qitishning boshqa zamonaviy vositalari joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonida didaktik materiallarning sifatli o‘zlashtirilishiga, o‘qitish samaradorligining oshishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda masofaviy ta’lim va elektron texnologiyalarning qo‘llanilishiga nisbatan avval mavjud bo‘lgan konservativ qarashlar bartaraf etilgan. Bu xususda o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar, ilmiy-amaliy seminarlar, nashr etilgan tadqiqotlar va monografiyalar fikrni tasdiqlaydi.

So‘nggi 30 yil davomida masofaviy ta’lim jahon ta’lim madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Shunga qaramay, uning mohiyatini yagona ilmiy asosda izohlashda hali ham bir to‘xtamga kelingan emas: turli mamlakatlar olimlari masofaviy ta’limni turlicha talqin qiladilar. Ba’zilar bu jarayonni an’anaviy sirtqi ta’limning modernizatsiya qilingan shakli deb hisoblasalar, boshqalar uni aralash (blended learning) modeli sifatida ko‘radi.

Eng maqbul ta’riflardan biri A.A. Andreev, M.V. Legan, V.I. Solodkin va T.A. Yatsevich tomonidan berilgan: “Masofaviy ta’lim - bu o‘qituvchi va o‘quvchi

ISSN 3030-3907

o‘rtasidagi hamda o‘quv vositalari orqali kechadigan, makon va vaqt chegaralariga bog‘liq bo‘lmagan holda tashkil etiladigan, maqsadga yo‘naltirilgan interaktiv o‘quv jarayonidir. Oilaviy shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlar Shodmonov Q.X., Madaminov M., Inoyatov A.Sh. [6,7] kabi tibbiyot pedagogikasi bo‘yicha yetakchi olimlar tadqiqotlarida keng asoslab berilgan.

Xorijiy ta’lim muassasalari masofaviy o‘qitishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va interaktiv platformalar orqali tashkil etmokda. Masalan, AQShda har yili taxminan 2 millionga yaqin talaba onlayn oliy ta’lim oladi. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda esa “megauniversitetlar” shakllangan bo‘lib, ularda 100 mingdan ortiq talaba masofaviy texnologiyalar yordamida tahsil olmoqda.

Rossiya tajribasiga o‘xshash tarzda, O‘zbekistonda ham masofaviy ta’limning rivojlanishi dastlab bir qator omillar bilan cheklanib kelgan - yetarli texnik baza, kompyuterlar sonining kamligi, internet infratuzilmasining to‘liq shakllanmaganligi va o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo‘yicha tayyorligi yetarli darajada bo‘lmagan. So‘nggi yillarda bu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Tibbiyot sohasi uchun, ayniqsa oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitish yo‘nalishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki birlamchi tibbiy bo‘g‘in xodimlarini muntazam malaka oshirish, ularning zamonaviy klinik ko‘nikmalarini yangilab borish hamda zamon talabiga mos bilimlar bilan qurollantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Masofaviy o‘qitish jarayonining eng muhim xususiyati uning yuqori darajadagi moslashuvchanligidir: tinglovchi o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtiradi, vaqt va o‘quv yuklamasi bo‘yicha shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantiradi. Aynan mana shu omil masofaviy ta’limning afzalligi sifatida e’tirof etiladi.

Aynan shu davrda O‘zbekistonda masofaviy ta’limni tashkil etish tartibiga doir ilk me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham paydo bo‘la boshladi[1], bu esa ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimli joriy etishning huquqiy asosini yaratdi.

Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni rivojlantirish bir qator obyektiv omillar bilan izohlanadi. Avvalo, bugungi kunda mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy sharoitlar ayrim mutaxassislar uchun an’anaviy usulda bilim olish imkoniyatini sezilarli darajada cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayoni asta-sekin an’anaviy kunduzgi o‘qitishdan zamonaviy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 559-son qarori (03.10.2022)

ISSN 3030-3907

hayot talablari, mehnat bozori ehtiyojlari va kasbiy faoliyat dinamikasiga mos keladigan yanada moslashuvchan masofaviy ta’lim texnologiyalariga o‘tmoqda [8].

Masofaviy ta’limning ko‘plab afzalliklariga qaramay, uning ayrim jihatlarini tanqid qiluvchi qarashlar ham mavjud. Ba’zi mutaxassislar ushbu ta’lim shakli an’anaviy o‘qitishni to‘liq almashtira olmaydi, deb hisoblaydi. Ilmiy adabiyotlarda masofaviy ta’lim samaradorligiga doir qarama-qarshi fikrlar uchraydi: ayrim olimlar masofaviy ta’lim yuqori sifatli o‘quv natijalarini ta’minlay olmasligini ta’kidlasa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar buning aksini ilgari suradi. Ularning fikricha, masofaviy ta’lim jarayonida tinglovchining mustaqilligi, o‘z vaqtini boshqarish ko‘nikmasi, mas’uliyati va ichki intizomi kuchayadi; o‘quv materiali asosan mustaqil o‘zlashtiriladi; ta’lim jarayonining tezligi va chuqurligi tinglovchining shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda belgilanishi esa o‘zlashtirish sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Bu haqda S. M. Dudko, I. Ya. Zlotnikova, V. A. Lodnev, A. V. Mogilev, P. I. Obraztsov, R. V. Pimonov kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida alohida e’tirof etadilar [9].

Hozirgi davr ta’lim tizimida o‘qitish nazariyasi va amaliyotida yangiliklarni izlash jarayoni uzluksiz davom etmoqda. An’anaviy o‘qitish shakllari va metodlarining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga to‘liq mos kelmasligi ta’lim tizimini yanada pragmatik model sari yo‘naltirmoqda. Aynan mana shu omillar oliy ta’lim muassasalaridagi malaka oshirish tizimida masofaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish zaruratini yanada oshirmoqda [10].

Ma’lumki, Rossiya oliy ta’lim tizimida ikki asosiy pedagogik model mavjud: klassik model va pragmatik model **[11].**

1. Klassik model. Uning asosini an’anaviy ta’lim tashkil etadi. Bu modelda o‘qituvchi – bilim manbai, tinglovchi esa – tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida talqin qilinadi. Ta’lim jarayoni asosan katta hajmdagi bilimlarni yetkazish va ularni o‘zlashtirishga qaratiladi. Ushbu model tarixan shakllangan an’analari tufayli hanuzgacha Rossiya ta’lim tizimida ustunlik qiladi.

2. Pragmatik model. Ushbu model shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va zamonning real ehtiyojlariga tez moslashadigan tizim sifatida qaraladi. Bu yondashuv: faqat bilim emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishni, tinglovchining faol ishtirokini, o‘qituvchining nafaqat ta’lim beruvchi, balki jarayonni tashkil qiluvchi va administrator sifatidagi rollarini taqozo etadi [12].

Zamonaviy sharoitda sog‘liqni saqlash sohasi, ayniqsa birlamchi bo‘g‘inda faoliyat yurituvchi oilaviy shifokorlar, doimiy ravishda klinik protokollar, dori vositalari, diagnostika standartlaridagi o‘zgarishlar bilan yuzma-yuz keladi. Shu

ISSN 3030-3907

sababli klassik (leksiya + auditoriya) modeli ko‘plab jihatlarda yetarli bo‘lmay qolmoqda.

Pragmatik model esa oilaviy shifokorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: klinik kompetensiyalarni mustahkamlash, real amaliyotga moslashgan interaktiv o‘qitish, simulyatsion topshiriqlar, telemeditsina va raqamli sog‘liq texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil ta’limini rag‘batlantirish.

Masofaviy ta’lim aynan pragmatik modelning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, oilaviy shifokorning kundalik mehnat faoliyatidan ajralmagan holda malakasini oshirishga sharoit yaratadi.

Zamonaviy jamiyatdagi ehtiyojlar masofaviy ta’limdan faqat texnik vositalarni joriy etishni emas, balki ta’lim texnologiyalari, shakllari, metodlari, mazmuni va vositalarini tubdan yangilashni talab etmoqda. Shu sababli yangi ta’lim paradigmasida ustuvor o‘rin o‘quv materialining mazmuniga emas - u tez eskirishi va muntazam ravishda yangilanib borishini inobatga olib - balki bilimlarni egallash texnologiyasiga beriladi.

Ushbu texnologiya xalqaro ilmiy-amaliy tajribada E-learning (electronic learning, elektron o‘qitish) nomi bilan keng qo‘llanmoqda. Rossiya ta’lim tizimida esa mazkur jarayonni ifodalash uchun asosan “Masofaviy ta’lim” atamasi qo‘llanadi [13].

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida, ayniqsa oilaviy shifokorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida, yuqorida qayd etilgan paradigmalarning o‘zgarishi bevosita dolzarbdir. Chunki: zamonaviy klinik protokollar va davolash standartlari tez-tez yangilanadi; birlamchi bo‘g‘inda xizmat ko‘rsatish sifatiga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda; raqamli tibbiyot, elektron poliklinika, telemeditsina keng joriy qilinmoqda; aholining profilaktika, sog‘lom turmush tarzi, ekologik xavfsizlik bo‘yicha ehtiyojlari ortmoqda.

Natijada oilaviy shifokorlarning malakasini oshirish jarayonida E-learning asosidagi masofaviy o‘qitish: klinik kompetensiyalarni tezkor va tizimli yangilashga, o‘z ish joyidan ajralmagan holda malaka oshirishga, shaxsiy ta’lim trayektoriyasining shakllanishiga, elektron axborot-resurslar bilan ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga imkon yaratadi.

Shu jihatdan, yangi ta’lim paradigmasi oilaviy shifokorlar malakasini oshirish tizimida innovatsion, kompetensiyaga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv o‘qitish texnologiyalarining joriy qilinishini talab qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida an’anaviy (klassik) va pragmatik modellar bir vaqtning o‘zida parallel ravishda faoliyat yuritib, ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi ta’lim tizimining modernizatsiya jarayonini belgilab bermoqda.

ISSN 3030-3907

An’anaviy model ko‘proq bilimlarni reproduktiv tarzda o‘zlashtirish, o‘qituvchidan o‘quvchiga tayyor axborotni yetkazish va barqaror o‘quv mazmuniga tayanishi bilan tavsiflanadi. Bu model uzoq yillar davomida mamlakat ta’lim tizimining asosiy tayanch paradigmasi bo‘lib, milliy pedagogik an’analar va o‘quv jarayonining barqarorligini saqlashga xizmat qilgan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda masofaviy ta’lim va AKT asosidagi o‘qitish metodikasini rivojlantirish bo‘yicha qator yetakchi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ularning ishlari yuqoridagi rus olimlar tadqiqotlariga mos keluvchi mahalliy ilmiy asosni shakllantiradi. Jumladan: Tibbiy ta’lim va oilaviy shifokorlar malakasini oshirish bo‘yicha:

Qurbonov Sh. Q. - tibbiyot oliy ta’limida raqamli ta’lim texnologiyalari, Raxmonov A. Sh. - shifokorlarni masofaviy o‘qitish samaradorligi, Inoyatov U. I. - tibbiyot xodimlari malakasini oshirishda AKTdan foydalanish, To‘xtiyev N. - tibbiy ta’limda interaktiv elektron resurslar, masofaviy klinik ta’lim [14,15].

Masofaviy o‘qitish bo‘yicha yirik loyihalar va yangiliklar: ZiyoNET, MOODLE, UzLMS platformalarining joriy etilishi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (PF-60, PQ-4887, PQ-3775) asosida AKTni ta’limga tatbiq etish; Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha Republican Medical College, Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish instituti ning masofaviy kurslari.

Mazkur pedagogik qarashlar ta’lim jarayonini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda asosiy e’tibor o‘quvchining mustaqil bilish faoliyatiga qaratiladi. Shaxsning mustaqil ravishda rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quv jarayoni uning intellektual va kasbiy kamolotiga bevosita va muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning asosiy konseptual tamoyillaridan biri - ularning moslashuvchanligi, ya’ni o‘quvchiga ta’lim muassasasidan uzoqda bo‘lgan holda, o‘ziga qulay vaqt va joyda bilim olish imkonini berishidir [16]. Shuningdek, masofaviy ta’limni samarali tashkil etishda kommunikativlik tamoyili yetakchi o‘rin tutadi [17]. Masofaviy o‘qitishda bilimlarning o‘zlashtirilishi, kognitiv faoliyat turlari hamda o‘quvchining o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni turli amaliy-professional vaziyatlarda qo‘llay olish darajasiga doir muntazam monitoring olib borilishi ta’lim sifati haqida xolis xulosa chiqarish imkonini beradi.

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan o‘quv tizimlari (portal, dasturiy komplekslar va boshqalar) ni yaratishda bir qator muhim didaktik omillarni inobatga olish talab etiladi.

ISSN 3030-3907

Birinchidan, malaka oshirish tizimida o‘qiyotgan tinglovchining boshlang‘ich tayyorgarligi va axborot tizimi bilan samarali muloqotga kirishish bo‘yicha motivatsion tayyorgarligi aniqlanishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogik ta’sir natijalarini aniq prognoz qilish, ya’ni tinglovchi qanday bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy kompetensiyalarni egallay olishi, elektron tizim bilan muloqot uning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi va ushbu ta’sirning maqsadga muvofiqligi baholanadi.

Uchinchidan, ta’lim mazmunining variativ yoritilishi, ya’ni vizual-izohli, muammoli, interaktiv va boshqa ko‘rinishlarda taqdim etilishi ta’minlanadi.

To‘rtinchidan, o‘qitish jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuv ustuvor bo‘lishi kerak.

Beshinchidan, ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasini bosqichma-bosqich monitoring qilish imkonini beruvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur [18].

Pedagog olima S. V. Panyukova tomonidan axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi didaktik prinsiplari asoslab berilgan: shaxsning o‘ziga xos qadr-qimmati tamoyili; o‘quvchini bilish jarayonining faol subyekti sifatida belgilash tamoyili; o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘z-o‘zini ta’lim olishga yo‘naltirish tamoyili; o‘quvchining ijtimoiylashuvini ta’minlash tamoyili; o‘quvchining shaxsiy-subyektiv tajribasiga tayangan holda o‘qitish tamoyili; individual psixofiziologik xususiyatlarni hisobga olish tamoyili; shaxsning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyili [19].

Ushbu tamoyillar malaka oshirish tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishda bazaviy metodik asos vazifasini bajaradi (A.O. Kosheleva). Shundan kelib chiqadiki, malakasini oshirayotgan mutaxassislar uchun masofaviy ta’limning didaktik asoslarini ishlab chiqishda kompleks yondashuv hamda kompetensiyaga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy o‘qitish kursi mazmunan professional axborotga boy, zamonaviy pedagogik funksiyalarni to‘liq ro‘yobga chiqaradigan, metodik jihatdan ta’minlangan bo‘lishi zarur [20].

Masofaviy ta’limni samarali tashkil etish masalasi O‘zbekiston pedagogika ilmida ham chuqur o‘rganilgan bo‘lib, milliy pedagogik maktab vakillari - A. Avloniy, N. Azizxo‘jayev, R. Ishmuxamedov, B. Ziyomuhammedov, A. Abduqodirov, A. Jalolov, Sh. Sharipovlarning ilmiy qarashlari masofaviy ta’lim jarayonini didaktik jihatdan asoslashda muhim metodologik manba vazifasini bajaradi [21,22,23,24].

ISSN 3030-3907

Ularning izlanishlarida masofaviy o‘qitishning zamonaviy shakllari aynan shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, mustaqil ta’limni rag‘batlantiruvchi va innovatsion yondashuvlar orqali samaradorlikka erishishi ta’kidlanadi.

Ushbu tadqiqotda masofaviy ta’limning oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari (MOK) tizimidagi o‘rni va mohiyatigagina emas, balki uning asosiy funksiyalariga ham e’tibor qaratilgan. Kasbiy ta’lim nazariyasi va metodikasining vazifalari o‘quv jarayonini tavsiflash, uni izohlash hamda amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat ekan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - MOK tinglovchilarining o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish, yangi o‘quv tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Shu bois, malaka oshirish kurslari bir vaqtning o‘zida tadqiqot obyekti ham, pedagogik konstruksiyalash obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, o‘quv jarayoni tadqiqotchining diqqat markazida bo‘lganda, pedagogika o‘zining ilmiy-nazariy funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, nazariya har doim amaliy faoliyat uchun metodologik asos vazifasini bajaradi va amaliy jarayonni takomillashtirish imkonini yaratadi.

Malaka oshirish kurslaridagi o‘quv jarayonini tasvirlashdan uning mazmuni va tuzilmasini qayta loyihalashga o‘tilganida, didaktikaning konstruktiv-texnologik funksiyasi amalga oshiriladi. Albatta, nazariy va konstruktiv funksiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Biroq, tadqiqot muallifining fikricha, malaka oshirish kurslari tinglovchilarini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan masofaviy ta’limning asosiy funksiyalarini aniqlash va tahlil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Masofaviy ta’limning malaka oshirish kurslari tizimidagi asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Bilimlar dinamikasi va o‘qitish statistikasi funksiyasi. Masofaviy ta’lim tizimi tinglovchilarning bilim darajasidagi o‘zgarishlarni, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini muntazam qayd etishi va tahlil qilishi zarur.

O‘quv jarayonini loyihalash funksiyasi. Masofaviy ta’lim tizimi o‘qituvchiga dars ishlanmalari, o‘quv rejalari, didaktik materiallar va boshqa metodik vositalarni yaratish uchun moslashuvchan va rivojlangan instrumentariy taqdim etishi kerak.

Bilimlarni nazorat qilish funksiyasi. Malaka oshirish kurslarida o‘rganiladigan barcha fanlar bo‘yicha tinglovchilarning bilimini test sinovlari orqali tekshirish imkoniyati yaratilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash funksiyasi. Tinglovchi axborot texnologiyalari va virtual ta’lim portali yordamida o‘z bilimini mustaqil ravishda tekshira olishi zarur.

ISSN 3030-3907


Kollektiv ta’lim va muloqotni qo‘llab-quvvatlash funksiyasi. Masofaviy ta’lim tizimi tinglovchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida lokal yoki global tarmoq orqali hamkorlik va interaktiv aloqani ta’minlashi kerak.

Administrativ boshqaruv funksiyasi. Malaka oshirish kurslarining tematik rejalari, o‘quv dasturlari, mashg‘ulotlar jadvali, pedagogik yuklama va boshqa tashkiliy jarayonlarni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish vazifasini o‘z ichiga oladi.

Mazkur funksiyalar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’lim nazariyasi va metodikasi, xususan, malaka oshirish kurslarida tinglovchilarni o‘qitish jarayoni hozirgi bosqichda izchil yangilanib, takomillashib bormoqda. Masofaviy ta’lim asosida shakllangan mustahkam o‘quv tizimi (1-rasm) orqali masofaviy ta’limning mohiyati va unda qo‘llanilayotgan didaktik konsepsiyalarni chuqur tushunish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Biroq, ushbu tadqiqot muallifining fikricha, malaka oshirish kurslari tinglovchilarini o‘qitishda qo‘llaniladigan masofaviy ta’limning asosiy funksiyalarini aniqlash va tahlil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

ISSN 3030-3907



1-rasm – malaka oshirish kurslari uchun masofaviy ta‘lim tizimi

Masofaviy ta’limning prinsiplari, funksiyalari va xossalari hamda malaka oshirish kurslari tinglovchilarining o‘quv natijalari bilan bog‘liq jihatlar majmui ta’lim sifatini baholash imkonini beradi.

Bu esa shuni anglatadiki, masofaviy ta’lim jarayonida belgilangan maqsadlar va ularga erishish natijalari o‘zaro solishtirilishi zarur. Maqsadlar bilan olingan real natijalar o‘rtasidagi moslik darajasi ta’lim sifatining mezoni sifatida qaraladi [25].

Ta’lim sifati masalasi, xususan malaka oshirish tizimida, masofaviy o‘qitishning mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim - jamiyatning barcha sohalari faoliyati uchun asosiy maydon bo‘lib, inson kapitali

ISSN 3030-3907

shakllanishining bosh omilidir. Shu sababli ta’lim sifati darajasi nafaqat shaxsning kasbiy rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, davlatning suvereniteti, qudrati va xalqaro maydondagi mavqeiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi [26].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim zamonaviy oliy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligi, moslashuvchanligi va uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari masofaviy ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Oliy ta’lim muassasalarida, xususan, malaka oshirish tizimida masofaviy ta’limni joriy etish pedagogik jarayonni individuallashtirish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va ta’lim sifati oshishiga olib keladi. Ayniqsa, oilaviy shifokorlarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda masofaviy ta’lim zamonaviy talablarga mos, samarali pedagogik yechim sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois, masofaviy ta’limni tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, metodik ta’minotni takomillashtirish va pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Андреев А.А. Педагогика в информационном обществе или электронная педагогика /А.А.Андреев// Высшее образование в России, № 11, 2011. – С. 113–117.
2. Андреев А.А. Дистанционное обучение: Сущность, технология, организация/ А.А. Андреев, В.И. Солдаткин. – М.: изд. МЭСИ, 1999. – С. 36.
3. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие [Текст]/Е.С. Полат, М. Ю. Бухаркина / Москва: Академия, 2008. – 365 с. ISBN: 978-5-7695-5150-5.
4. Inoyatov U.I. Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: monografiya. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2018. – 152 b.
5. To‘xtiyev N. Tibbiy ta’limda interaktiv elektron o‘quv resurslarini yaratish va qo‘llash metodikasi. – Toshkent: “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2020. – 134 b.
6. Shodmonov Q.X., Madaminov M. Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar // *Oliy ta’lim muammolari* jurnali. – Toshkent, 2019. – №4. – B. 42–47.

ISSN 3030-3907

7. Madaminov M. Oilaviy shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 156 b.
8. Кошелева А. О. Самоактуализация личности в условиях высшего профессионального образования [Текст] / А. О. Кошелева // Образование и общество, 2006. – № 2. – С. 26–28.
9. Дудко С. М. Стратегия и технологии дистанционного обучения в глобальном мире / С. М. Дудко // Военная мысль. № 6, 2011. – С. 57–62.
10. Ильинский А. Высокие технологии как фактор повышения качества обучения и преподавания [Текст] / А. Ильинский, Г. Максерат // Высшее образование в России, 2008. № 11. – С. 62–68.
11. Зайченко Т.П. Основы дистанционного обучения: Теоретико-практический базис / Т. П. Зайченко // Учебное пособие. – СПб: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2004. – С. 167.
12. Краснослободцев А.В. Интерактивное взаимодействие педагога и обучающегося в процессе дистанционного обучения /А.В. Краснослободцев //Сборник материалов XIII Международной научно-практической конференции “Современные проблемы гуманитарных и естественных наук”. – Москва, 2012. Т. 2. – С. 152–153.
13. Шабанов Г.А. Педагогическое сопровождение дистанционного образования студентов // Высшее образование сегодня. № 8, 2010. – С. 6–13.
14. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarishning pedagogik asoslari. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2015. – 210 b.
15. Inoyatov U.I. Kasbiy ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016. – 176 b.
16. Леган, М.В. Комбинированная модель обучения студентов на базе системы дистанционного обучения. / М. В. Леган, Т. А. Яцевич // Высшее образованиев России. № 4, 2014. – С. 136–141.
17. Бугайчук К.Л. Массовые открытые дистанционные курсы: история, типология, перспективы / К. Л. Бугайчук // Высшее образование в России, 2013. № 3. – С. 148–155.
18. Попов А.Э. Модели построения распределительных систем непрерывного образования на основе интернет-технологий [Текст] / А. Э. Попов, А. В. Дьяченко В.К. Мяэоте // Высшее образование в России, 2008. – № 3. – С. 61–68.
19. Панюкова С.В. Концепция реализации личностно-ориентированного обучения при использовании информационных и коммуникационных технологий. – М.: Изд-во ИОСО РАО, 1998.

ISSN 3030-3907

20. Кошелева А. О. Концептуальные подходы к подготовке личностно-зрелого специалиста в условиях вуза /А. О. Кошелева // Высшее образование сегодня. – № 3. – М., 2009. – С. 71–73.
21. Avloniy A. Pedagogik qarashlar va ta’lim-tarbiya tamoyillari. – Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti Noshiriyati, 2005. – 320 s.
22. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2006. – 256 s.
23. Ishmuxamedov R.J. Innovasion ta’lim texnologiyalari: pedagogik asoslar va amaliyot. – Toshkent: Best Publication, 2018. – 312 s.
24. Ziyomuxammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya: zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – Toshkent: Respublika konferensiyasi to‘plami, 2020. – 178 s.
25. Кроль В. М. Дистанционное образование: психолого-педагогические обоснования / В. М. Кроль, Н. И. Трифонов, Е. Д. Сотникова, М. Ю. Сивергин // Высшее образование в России. № 8, 2009. – С. 93–99.
26. Акопов С. И. Совершенствование учебного процесса вузов на основе его компьютеризации (опыт, исследования) // С. И. Акопов, В. Д. Алексеев, А. А. Андреев и др.; Под ред. О. В. Золотарева. – М.: ВПА, 1991. – С. 260.
27. Voxidov D.A., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Oilaviy shifokor mutaxassislarning malakasini oshirish tizimida samarali masofadan o‘qitishning pedagogik shartlari. Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2024-yil, 8-son.Toshkent. 85-89 bet.
28. Voxidov D.A., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Ta’lim jarayonida oilaviy shifokor mutaxassislarni masofadan o‘qitishni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari. Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2024-yil, 12-son.Toshkent. 118-124 bet.

ISSN 3030-3907